



Buxoro davlat universiteti  
BUXORO, 200117, M.IQBOL ko'chasi, 11-uy, 2021

«AMALIY MATEMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING  
ZAMONAVIY MUAMMOLARI»  
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
TEZISLAR TO'PLAMI

ABSTRACTS  
INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE  
«MODERN PROBLEMS OF APPLIED MATHEMATICS AND  
INFORMATION TECHNOLOGIES»

ТЕЗИСЫ  
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ  
«СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИКЛАДНОЙ МАТЕМАТИКИ И  
ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ»



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ФАКУЛЬТЕТИ**

**АМАЛИЙ МАТЕМАТИКА ВА  
АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ  
ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ**

**ХАЛҚАРО МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН**

**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021 йил, 15-апрель**

**Бухоро – 2021**

**OLIY TA'LIMI TIZIMIDA INFORMATIKA VA AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI FANLARINI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALARING INTERFAOL USULLARI**

**<sup>1</sup>Zaripova Gulbahor Komilovna, <sup>2</sup>Qobulova Elnora Latifjon qizi, <sup>2</sup>Namozova Nigina  
Shermat qizi**

*<sup>1</sup>Buxoro DU dotsenti, p.f.n.*

*<sup>2</sup>Buxoro DU Axborot texnologiyalari fakulteti Kompyuter ilimlari va dasturlash  
texnologiyalari yonalishi birinchi bosqich magistrлari*

Hozirgi zamон talablariga binoan oliy o'quv yurtlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri jahon standartlari talablariga javob bera oladigan bilimli, zukko va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir. Shuning uchun ham jahon andozalariga mos keladigan informatika va axborot texnologiyalari fanlaridan dars beradigan professor-o'qituvchi kadrlarini tayyorlash respublikamizdagi DTS (davlat ta'lism standart)lari tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Bunda "Ta'lism to'g'risida"gi Qonun [1] va "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi" [2] hamda O'zbekiston Prezidentining ta'lism-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimining tubdan isloq qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risidagi farmonlari ta'lism muassasalarida amalga oshirilayotgan islohotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shunga ko'ra sifatli, yetuk mutaxassis tayyorlash bilan birga ularni xolisona, erkin fikrلaydigan, Vatanga dildan xizmat qiladigan barkamol inson bo'lishlari uchun ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirib, davlat oldida javobgarlikni his qila oladigan har tomonlama yetuk, barkamol yoshlarni tarbiyalash va komil insonni voyaga yetkazish o'qituvchi-murabbiylarimizning asosiy burchidir. Bu ulkan vazifalarni amalga oshirish uchun jahonda yuqori samaradorlikka erishishda katta ahamiyatga ega bo'lgan ilg'or pedagogik texnologiyalarga e'tiborni qaratish muhimdir [3, 10]. Oliy ta'lism tizimida informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o'qitishning ta'lism-tarbiya tizimlarida yangi pedagogik texnologiyani [3, 17] qo'llash natijasida – o'quv amaliyotini informatika, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimiga kirish darslarida pedagogik jarayonni to'g'ri, oqilona qurish va amalga oshirish pedagog-olim tomonidan ixtiyorilik asosida bo'lib, uning har bir elementlarini va bosqichlarini tartibga keltirish hamda qilingan ishlarning yakuniy natijasiga obyektiv tashxis qo'yish asosida unga erishiladi.

Ma'rifatli va rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanilib kelinayotgan ta'lism texnologiyalarini o'rganib, informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarga tayangan holda, oliy ta'lism tizimining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda O'zbekistonning milliy ta'lism texnologiyasini yaratish lozim. Bunda ta'lism texnologiyalarini oliy ta'lism tizimida informatika va axborot texnologiyalari fanini o'quv jarayoniga joriy etish dolzarb muammodir. Bu haqda I.Karimov: "Buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlarimiz va rejalarimizni samarali taqdiri, avvalambor, davr talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli, tafakkurga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan bog'liq...", -deydi [4, 3].

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish borasida quyidagilarni to'g'ri ta'kidlagan: "Tarmoqlar va hududlarni modernizatsiya qilish, ularning raqobatdoshlik darajasini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari doimiy e'tiborimiz markazida bo'lishi lozim. Buning uchun xorijiy sarmoyalalar va ilg'or texnologiyalarni hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarini barcha sohalarga yanada faol jalb etishimiz zarur bo'ladi." [3, 14]

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda oliy ta'limi tizimida informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning interfaol usullari qo'llash бу муаммони ечишда мұхим ақамият касб этади. Shunga ko'ra янги педагогик технологияларнинг bir qator интерфаол усулларини ko'rib chiqsak: 1.Aqliy hujum usuli: muammoni mustaqil tushunish va yechishga ta'lism oluvchilarning motivatsiyasini (qiziqishini) uyg'otishdir; 2.Kichik guruhlarda ishslash usuli: guruhlar yoshiga, bilim, qiziqish, qobiliyat

darajasiga ko'ra aralash, yoki do'stlar, referent guruhlarga ajratib, ish olib boriladi; 3.Rolli o'yinlar usuli: ishbilarmonlik, yoki rolli o'yinlarni o'ynab, muammoli vaziyatlar bartaraf qilinadi; 4.Namoyish usuli: ko'rsatmalilikka asoslanadi, ko'rsatmalilik tabiiy-predmetli, texnik, tasviriy, so'z ko'rgazmaliliga ajratiladi; 5.Loyihalash usuli: bilim va malakalarni, tahlil qilish va baholashni nazarda tutuvchi ta'limning kompleksidir; 6.Tadqiqot usuli: o'quvchilar ayrim tadqiqot ishlarga, ya'ni diplom, kurs va bitiruv ishlarini ilmiy asoslangan holda mustaqil bajarishlari hamda ularning natijalarni tahlil qilishning tadqiqotidir; 7.Kitob ustida mustaqil ishslash usuli: ta'lim oluvchilarning o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishi, o'z-o'zini tekshirishi, berilgan matnning mazmunini to'liq va ongli ravishda bayon eta bilishi, muhim joylarni konspektlashtirishdir; 8.Disskusiya, bahs-munozara usuli: o'quv guruhini ikki komandaga bo'lган holda biror mavzu bo'yicha o'zaro bahs, fikr almashinadi; 9.Leksiya usuli: leksiyani malakali lektor o'qiydi, uni tinglagan talabalarda tushuncha hosil bo'ladi va ular o'qituvchi bilan savol-javob qiladilar; 10.Individual-amaliy usuli: ta'lim oluvchilar olgan bilimlarini amaliy vazifalarni yechishga, nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiq qiladilar; 11.Konferensiya usuli: talabalar o'z ilmiy-amaliy ishlarini anjumanda bayon qilib, so'ng uning natijasi analiz-sintez qilinadi; 12.Anketa usuli: talabalarga savollar majmuasi berilib, unga javob olinadi va talabaning bilimi, layoqati sinaladi, temperamenti hamda boshqa ma'lumotlar aniqlanadi; 13.Suhbat usuli: davra suhbat usuli: ta'lim oluvchilar davra stolida o'tirib, bir-birlarining savollariga og'zaki javob berishlari, yoki konvert orqali javob yozishlari va Suhbat individual va guruh shaklida o'tkazilishi mumkin; 14.Boshqalarni o'qitish usuli: o'quvchilar qo'yilgan muammo bo'yicha bir-birlariga axborotlar va ma'lumotlar berib, ularga o'qituvchidek o'rgatadilar; 15.Pinbord (inglizcha, pin-mustahkamlash, bord-doska) usuli: o'quvchilar o'z axborot va ma'lumotlarini doskaga yozadilar; 16.Video proyektor bilan ishslash, multimedya usuli: o'tiladigan mavzu video proyektor, kompyuter va uning kerakli texnik vositalaridan foydalaniladi. Bunga masofadan o'qitish usuli ham kiradi; 17.Trening usuli: talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlaydi; 18.Monitoring usuli: o'tilayotgan mavzu bo'yicha uni yorituvchi va unga yo'naltiruvchi bir qancha savollar o'rtaga tashlanadi. Hamma savollarga berilgan barcha javoblar tahlil qilinib, umumlashtiriladi va mavzuning mazmuni hamda maqsadi ochiladi; 19.Muammoli dars o'tish usuli: dars mavzusi o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligida o'zaro savol-javob yordamida yoritilib, muammo yechiladi.

Shunday qilib, professor-o'qituvchilar oliy ta'lim tizimida informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning interfaol usullaridan ta'lim jarayonida foydalansa, dars demokratik uslubda, erkin olib borilsa, talabaning fanga qiziqishi yanada ortadi, u erkin, mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga harakat qiladi va natijada jamoa bilan ishslashga o'rganadi hamda uning bilim darajasi samarador bo'ladi. Professor-o'qituvchi bunda ta'limning interfaol usullaridan foydalanar ekan, ta'lim jarayonida qatnashadigan o'qituvchi va talabaning baravar aktiv bo'lishlari – o'zaro interfaol munosabatda bo'lishlarini ta'minlashi maqsadga muvofiqlirdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. /Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.:Sharq.-1997y.20-29-b.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. /Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq. -1997y. 31-61-b.
3. Шавкат Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. (Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан). – Тошкент: «Ўзбекистон», - 2016. – В. 59.14-bet.
4. B.Q.Xo'jayev, Sh.SH.Olimov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Nazariya va amaliyot. – Buxoro: Buxoro nashriyoti. -2004 y. –120b. 10-b.
5. Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari (mavzusidagi seminar-trening materiallari).-T.: -2002y. -184b. 34-b.

6. Zaripova G.K., Sayidova N.S., Takhirov B.N., Hayitov U.Kh. Pedagogical cooperation between teacher and students in the credit-modular system of higher education // Science, Education and Culture. № 8 (52), 2020.

7. Zaripova G.K., Baxronova Sh.Sh., Muxammedova M.M. The role of theory and application of information systems in the field of information technology SCOPE ACADEMIC HOUSE. 11th International Conference. «SCIENCE AND PRACTICE: A NEW LEVEL OF INTEGRATION. IN THE MODERN WORLD». November 30, 2020, Sheffield, UK. – Б. 101-102.// DOI: [http://doi.org/10.15350/UK\\_6/11.47](http://doi.org/10.15350/UK_6/11.47)

8. Г.К.Зарипова, Н.С.Сайдова, А.А.Абдуахадов, Ж.Ж.Журакулов. Использование электронных ресурсов в историческом образовании и его защита. “АЭТЕРНА” научно-издательский центр. Научный-электронный журнал “АКАДЕМИЧЕСКАЯ ПУБЛИКАЦИЯ” №2, 2020 г. 123-131-стр.

9. Г.К.Зарипова, Н.С.Сайдова, И.И.Жураев, Ж.Ж.Журакулов. ББК 74.200.51. УДК 371. Теория и практика системной организайии духовно-просветительского воспитания учащихся профессиональных колледжей. “Проблемы науки”. – Москва: монография. 2021 год. 48 стр. ISBN 978—1-64655-084-5.

## ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ МЕТОДИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ

<sup>1</sup>Абидов К.З, <sup>2</sup>Тешаева Ф.Л.

<sup>1</sup>Доцент Бухарского инженерно-технологического института

<sup>2</sup>Преподаватель школы №23 г.Бухары

*Аннотация: В работе рассмотрены дидактические возможности использования информационных технологий для методического обеспечения самостоятельной работы студентов технических вузов.*

Стремительное развитие информатизации общества, электронных средств массовой информации, новых технических средств вносит достаточно инновационного в содержание и методику обучения в образовательных учреждениях технических направлений. В связи с этим стала актуальной проблема организации самостоятельной работы студентов с применением информационных технологий.

Система образования сегодня не имеет права, как на заре столетия, строить обучение на усвоении суммы готовых знаний, на переливании опыта цивилизаций из старого сосуда в новый.

Практически во всех развитых странах сделан резкий поворот на самообучение, самообразование, умение самостоятельно добывать нужную информацию, выделять проблемы и искать пути их рационального решения, уметь критически анализировать получаемые знания и применять их для решения новых задач

Самостоятельная работа студентов технических вузов может базироваться на следующих педагогических положениях:

- студент должен научиться самостоятельно приобретать знания, пользуясь разнообразными электронными источниками информации;
- студент должен уметь целенаправленно работать с приобретенной информацией;
- необходимо не только овладевать новыми знаниями, но и уметь применять их для решения практических задач;
- необходимо взаимодействие студента с преподавателем (в том числе через информационно-образовательную среду);
- должна быть достаточно развита система контроля и самоконтроля.

При организации самостоятельных работ студентов важное значение имеет использование информационных технологий которые позволяют преподавателю не

|  |     |
|--|-----|
| <b>Tillayeva Sh.M, Hamrayeva.F.A.</b> The theoretical overview of presentation skills .....  | 553 |
| <b>Begmatova N.X.</b> Axborotning ko‘rinishlari, xususiyatlari va turlari mavzusiga oid multimediali ilovalar yaratish .....   | 555 |
| <b>Sariyev R.B.</b> Integration of pedagogical and information technologies .....  | 558 |
| <b>Zaripov Sh.Sh.</b> Graflarda eng qisqa yo`lni axtarish metodlari. floyd algoritmi .....   | 559 |
| <b>Saidova D.E.</b> Hot potatoes dasturining imkoniyatlaridan foydalanib “to’plamlar nazariysi va kombinatorika elementlari” mavzusi uchun elektron krossvord yaratish .....                                       | 560 |
| <b>Mo’minov B.B., Iskandarov S.Q.</b> Katta hajmli ma'lumotlar muhitida xodisalar yozushi ma'lumotlariga dastlabki ishlov berish .....   | 563 |
| <b>Zaripov Sh.Sh.</b> Graflar bilan ishlovchi sodda algoritmlar.graflarni tasvirlash. eniga va tubiga qarab qidirish.....  | 565 |
| <b>Турдиева Г.С., Сулаймонова М.А.</b> Облачные технологии- как основное средство самостоятельной работы студентов .....   | 567 |
| <b>Курбонов Г.Г.</b> Возможности компьютерных образовательных технологий при обучении предмета аналитической геометрии .....   | 569 |
| <b>Зарипова Г.К., Намозова Н.Ш., Қобурова Э.Л.</b> Предоставление информации системе образования в результате удаленного обслуживания студентов с помощью электронных библиотек .....                              | 571 |
| <b>Zaripova G.K., Qobulova E.L., Namozova N.Sh.</b> Oliy ta’limi tizimida informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o’qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning interfaol usullari .....                  | 574 |
| <b>Абидов К.З, Тешаева Ф.Л.</b> Дидактические возможности информационных технологий для методического обеспечения самостоятельной работы студентов .....   | 576 |
| <b>Kasimov F.F.</b> Dasturlashni o’qitishda kognitiv yuklama nazariyasidan foydalanish.....  | 578 |
| <b>Эргашева С.Б., Ядгарова Л.Дж.</b> Влияние мультимедийных технологий в развитие и здоровье современного ребенка.....   | 579 |
| <b>Абдуллаева З.Ф.</b> Умумий ўрта таълимда дастурлаш тилларини ўқитиш методлари .....   | 581 |
| <b>Asrayev Z.R.</b> O'qish jarayonida elektron ta'lim resurslaridan foydalanish afzallikkari va kamchiliklari.....   | 583 |
| <b>Xazratov F.X.</b> Bo'lajak geografiya o'qituvchisining geoaxborot texnologiyalarga asoslangan axborot madaniyatini oshirish .....   | 584 |
| <b>Xazratov F.X.</b> Таълим тизимида геоахборот тизимларидан фойдаланишнинг ҳозирги холати .....   | 586 |
| <b>Jo`raqulov J.J.</b> Malaka oshirish tizimida ommabop ochiq onlayn kurslarning ahamiyati .....   | 588 |
| <b>Нам А.Л.</b> Особенности организации и планирования обучения в системе высшего образования в период и после пандемии .....  | 590 |
| <b>Sayidova N.S., Zaripova G.K., Jo'raqulov Q.A., Maxkamova A.M.</b> Oliy va kasb-hunar ta’limi tizimida o’qituvchi kadrlarni malakasini oshirishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish ..... | 592 |
| <b>Sayidova N.S., Tahirov B.N., Haydarov O.R.</b> Kompyuter grafikasi va undagi opengl grafik standartining imkoniyalari.....  | 594 |
| <b>Xolmatov O.A., Mirsaidov B.M.</b> Python dasturlash tilini o’rgatuvchi elektron o’quv qo’llanma yaratish .....  | 596 |
| <b>Sagidullaev N.I., Orinbaev A.B., Baytilewova G.D.</b> Maktablarda scratch dasturi ahamiyati va unda o’yinlar yaratish.....  | 599 |
| <b>Narziev U.Z.</b> Masofali ta’limda nazorat.....   | 600 |
| <b>Xolmurodova Z.N.</b> Matnli axborotlar bilan ishlashda dasturiy vositalarning o’rni .....   | 602 |
| <b>To’rayeva G.H., To’xtayev N.</b> “UNICODE” nima va uning o’zbek tili lotin alifbosidagi istiqbollari qanday? .....  | 604 |
| <b>Ниязхонова Б.Э., Махмудова М.М.</b> Интегратив дарс машғулотларини ўтказишида мультимедиа технологияларни қўллаш .....  | 606 |
| <b>Мўминов Б.Б., Бўронова Г.Ё., Норова З.Ш..</b> Умумий ўрта таълим мактабларида робототехника тўгараклар фаолиятини интерфаол усуслар ёрдамида ривожлантириш.....   | 607 |
| <b>Мўминов Б.Б., Бўронова Г.Ё., Мухаммедов А.А.</b> Виртуал дастурлар воситасида умумий ўрта таълим мактабларида робототехника тўгараклари фаолиятини ривожлантиришнинг универсал ўкув методлари.....              | 609 |